

KIBERJINOYATCHILIK PROFILAKTIKASIDA MA'NAVIY
QADRIYATLARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Sultonov Xusanboy Nabijonovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22335740>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiberjinoyatchilik profilaktikasi jarayonida ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ularning normativ, motivatsion va integrativ funksiyalari tahlil qilinadi. Ma'naviy qadriyatlar tashqi nazorat yetib bormaydigan raqamli makonda shaxs xulq-atvorini tartibga soluvchi ichki regulyator hamda huquqiy normani shaxsiy e'tiqodga aylantiruvchi vositachi mexanizm sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda kiberjinoyatchilikning kelib chiqishida texnologik imkoniyat bilan bir qatorda axloqiy chetlashuv, onlayn deinhbitsiya, o'z-o'zini nazorat qilishning zaifligi va qadriyat yo'nalishlarining beqarorlashuvi hal qiluvchi rol o'ynashi asoslanadi.

Kalit so'zlar: kiberjinoyatchilik, profilaktika, ma'naviy qadriyatlar, aksiologiya, axloqiy chetlashuv, o'z-o'zini nazorat, raqamli etika, milliy qadriyatlar, ichki regulyator, huquqiy ong, mahalla, ijtimoiy nazorat.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-философская сущность духовно-нравственных ценностей в процессе профилактики киберпреступности, а также рассматриваются их нормативная, мотивационная и интегративная функции. Духовно-нравственные ценности интерпретируются как внутренний регулятор поведения личности в цифровом пространстве, недоступном для внешнего контроля, а также как опосредующий механизм, преобразующий правовую норму в личное убеждение. В исследовании обосновывается, что наряду с технологическими возможностями в возникновении киберпреступности решающую роль играют нравственная девиация, онлайн-деингибция, ослабление самоконтроля и нестабильность ценностных ориентаций.

Ключевые слова: киберпреступность, профилактика, духовно-нравственные ценности, аксиология, нравственная девиация, самоконтроль, цифровая этика, национальные ценности, внутренний регулятор, правосознание, махалля, социальный контроль.

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical essence of spiritual and moral values in the prevention of cybercrime, focusing on their normative, motivational, and integrative functions. Spiritual and moral values are interpreted as an internal regulator of individual behavior in digital environments where external control is limited, as well as a mediating mechanism that transforms legal norms into personal convictions. The study substantiates that, alongside technological opportunities, moral disengagement, online disinhibition, weakened self-control, and instability of value orientations play a decisive role in the emergence of cybercrime.

Keywords: cybercrime, prevention, spiritual and moral values, axiology, moral disengagement, self-control, digital ethics, national values, internal regulator, legal consciousness, mahalla, social control.

KIRISH

Kiberjinoyatchilik zamonaviy jamiyatning eng tez o'sayotgan va eng tez shakl o'zgartirayotgan huquqbuzarlik turlaridan biriga aylandi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u an'anaviy jinoyatchilikdan farqli o'laroq jismoniy kuch, hududiy yaqinlik yoki bevosita aloqani talab qilmaydi; jinoyat sodir etuvchi va jabrlanuvchi bir-birini hech qachon ko'rmasligi, hatto turli qit'alarda joylashgan bo'lishi mumkin. Bu holat huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga texnik va protsessual muammolarni qo'yish bilan birga, ijtimoiy falsafa oldiga ham chuqur nazariy savolni ko'ndalang qiladi: jazoning muqarrarligi sezilmaydigan, ijtimoiy qoralash esa jabrlanuvchining ko'rinmasligi tufayli susayadigan makonda shaxsni huquqbuzarlikdan nima to'xtatib turadi? Ushbu savolga berilgan javob profilaktika strategiyasining butun mantiqini belgilaydi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda ikki asosiy yondashuv shakllangan. Birinchisi - texnik-repressiv yondashuv bo'lib,

u himoya vositalarini kuchaytirish, monitoring tizimlarini kengaytirish, javobgarlik choralari qattiqashtirish va aniqlash imkoniyatlarini oshirishga tayanadi. Ikkinchisi - aksiologik yondashuv bo'lib, u shaxsning ichki axloqiy tizimini mustahkamlash, qadriyat yo'nalishlarini barqarorlashtirish va huquqbuzarlikni shaxsning o'zi uchun qabul qilib bo'lmaydigan xatti-harakatga aylantirishni maqsad qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, birinchi yondashuv zarur, biroq yetarli emas: har qanday texnik to'siq vaqt o'tishi bilan aylanib o'tiladi, har qanday nazorat tizimi esa o'z qamrovi chegarasiga ega. Aksincha, ichki axloqiy to'siq foydalanuvchi bilan birga harakat qiladi va nazorat mavjudligidan qat'i nazar ishlaydi. Ma'naviy qadriyatlar falsafiy kategoriya sifatida shaxs va jamiyat uchun ahamiyatli deb tan olingan, xulq-atvorga yo'nalish beruvchi va avloddan avlodga uzatiluvchi ideal mazmunlar tizimini ifodalaydi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, qadriyat majburlash orqali emas, balki ichki qabul qilish orqali ishlaydi. Huquqiy norma "qilma, aks holda javobgarsan" tamoyiliga tayansa, qadriyat "bu mening insoniy qiyofamga mos kelmaydi" tamoyili asosida amal qiladi. Aynan shu farq profilaktika nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki raqamli makonda tashqi javobgarlik ehtimoli subyektiv ravishda past baholanadi, ichki qiyofa muvofiqligi mezoni esa har qanday sharoitda saqlanib qoladi.

O'zbek milliy madaniyatida kiberjinoyatchilikka qarshi turishga bevosita xizmat qilishi mumkin bo'lgan qadriyatlar tizimi tarixan shakllangan. Halollik, halol mehnat bilan topilgan rizq, o'zganing haqiga xiyonat qilmaslik, omonatga sadoqat, sirni saqlash, uyat va andisha, insonning obro'sini asrash, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi me'yorlar shaxsning kundalik xulqini asrlar davomida tartibga solib kelgan. Muhim jihat shundaki, ushbu me'yorlarning aksariyati o'z mazmuni bo'yicha raqamli kontekstga to'liq ko'chiriladi. Masalan, omonatga xiyonat qilmaslik tamoyili raqamli sharoitda boshqa shaxsning paroli, shaxsiy yozishmalari va moliyaviy ma'lumotlariga daxlsizlik talabini anglatadi; halol rizq tamoyili esa onlayn firibgarlik, qimor va tez boyish sxemalarini axloqiy jihatdan istisno qiladi. Demak, milliy qadriyat tizimi profilaktika uchun tayyor, ammo yetarlicha

aktuallashtirilmagan resursdir. Ayni paytda globallashtirish va raqamlashuv sharoitida ushbu qadriyatlar tizimi jiddiy sinovga duch kelmoqda. Sadulla Otamuratov ta'kidlaganidek, texnogen sivilizatsiya millatlar taraqqiyotiga ko'p yo'nalishli ta'sir ko'rsatadi va milliy manfaatlarni texnologik yutuqlar bilan uyg'unlashtirish alohida ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi [1]. Raqamli makonda yosh shaxs bir vaqtning o'zida bir-biriga zid bo'lgan qadriyat xabarlarini oqimiga tushib qoladi: bir tomondan an'anaviy axloqiy me'yorlar, ikkinchi tomondan tez muvaffaqiyat, cheksiz iste'mol va har qanday yo'l bilan e'tibor qozonish madaniyati targ'ib qilinadi. Bunday ko'p qutbli ta'sir qadriyat yo'nalishlarining beqarorlashuviga, ba'zi hollarda esa axloqiy relyativizmga, ya'ni har qanday xatti-harakatni vaziyatga qarab oqlash mumkin degan qarashga olib keladi.

Kiberjinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Onlayn deinhubitsiya effekti ta'sirida foydalanuvchi real hayotda o'ziga ruxsat bermaydigan xatti-harakatlarni raqamli muhitda ancha oson amalga oshiradi; anonimlik, ko'rinmaslik va javobning kechikishi ichki tormozlarni susaytiradi [8]. Axloqiy chetlashuv mexanizmlari esa qilmishni qayta nomlash, mas'uliyatni tarqatish, jabrlanuvchini ayblash va oqibatlarni kichraytirish orqali shaxsga o'z axloqiy standartlarini vaqtincha o'chirib qo'yish imkonini beradi. Natijada firibgarlik "aqlli reja", o'zganing ma'lumotini o'g'irlash "texnik mahorat", jabrlanuvchi esa "o'zi ehtiyotsiz" sifatida talqin qilinadi. Aynan mana shu qayta nomlash jarayoni qadriyat to'sig'ining birinchi buzilish nuqtasi hisoblanadi. O'zbekistonda kiberxavfsizlikning huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda: "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, ixtisoslashgan bo'linmalarining tashkil etilishi, profilaktika xizmati faoliyatining raqamli sohaga kengaytirilishi bu boradagi tizimli sa'y-harakatlarning ifodasidir [10]. Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishning kuchayishi o'z-o'zidan axloqiy ongning yuksalishini anglatmaydi. Agar norma faqat qo'rquv sababli bajarilsa, u nazorat zaiflashgan zahoti buziladi. Norma shaxsning qadriyat tizimiga singib ketganda esa u o'z-o'zini nazorat qiluvchi barqaror mexanizmga aylanadi. Aynan shu o'tishni

ta'minlash - huquqiy majburiyatni axloqiy e'tiqodga aylantirish - profilaktikaning eng murakkab, ayni paytda eng natijaviy vazifasidir. Ma'naviy qadriyatlarning profilaktik salohiyatini tushunish uchun ularning shaxs xulq-atvorini tartibga solish mexanizmini aniqlashtirish zarur. Qadriyat shaxsning har bir alohida qarorini emas, balki qaror qabul qilish mezonini belgilaydi. Boshqacha aytganda, u nima qilish kerakligini emas, nimadan kelib chiqib tanlash kerakligini ko'rsatadi. Shu sababli qadriyatga tayangan profilaktika har bir yangi kiberjinoyat sxemasi paydo bo'lganda qayta ishlab chiqilishi shart bo'lmagan yagona yondashuvdir: texnik usullar cheksiz o'zgarsa-da, o'zganing haqiga daxlsizlik tamoyili o'zgarmaydi. Ushbu jihat ayniqsa muhim, chunki kiberjinoyatchilikning zamonaviy shakllari juda tez yangilanadi. Bugungi kunda ijtimoiy muhandislik usullari, soxta investitsiya takliflari, onlayn qimor platformalari, kript sxemalari va sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxta shaxs modellari bir necha oy ichida almashib turadi. Faqat konkret sxemalarni tushuntirishga asoslangan profilaktika bu tezlikka doimiy ravishda ortda qoladi. Aksincha, halol daromad, o'lchovli iste'mol va boshqa insonning ishonchini suiiste'mol qilmaslik haqidagi qadriyat mezoni har qanday yangi sxemaga nisbatan ham amal qiladi, chunki u usulni emas, niyatni baholaydi. Bundan tashqari, qadriyatlar profilaktikaning jabrlanuvchini himoya qilish jihatiga ham bevosita daxldordir. Kiberjinoyatchilikda jabrlanuvchi ko'pincha ikki marta zarar ko'radi: birinchi marta moddiy yoki ma'naviy yo'qotish natijasida, ikkinchi marta esa atrofdagilarning ayblovi munosabati tufayli. Agar jamiyatda jabrlanuvchini ayblash amaliyoti ustuvor bo'lsa, insonlar o'z holatini yashiradi va bu jinoyatchilar uchun qulay muhit yaratadi. Insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, qiyin ahvolga tushganga yordam berish va uni kamsitmaslik kabi milliy axloqiy me'yorlar aynan shu nuqtada profilaktik funksiyani bajaradi. Mazkur maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, kiberjinoyatchilik bo'yicha mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi huquqiy kvalifikatsiya, kriminologik tavsif va texnik himoya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ma'naviy qadriyatlarning profilaktik salohiyati alohida ijtimoiy-falsafiy tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada asoslanmagan.

Tadqiqotning maqsadi kiberjinoyatchilik profilaktikasida ma'naviy qadriyatlarning funksional o'rnini nazariy jihatdan asoslash, ularning normativ, motivatsion va integrativ vazifalarini ochib berish hamda qadriyatga tayangan profilaktika modelini ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, maqolada qadriyat profilaktikaning yumshoq, yordamchi omili emas, balki uning eng chuqur va eng uzoq muddatli qatlami sifatida talqin qilinadi.

Mavzuga oid milliy ilmiy adabiyotlar tahlili ma'naviy qadriyatlar va axborot texnologiyalari o'zaro munosabatini yorituvchi ikki tadqiqot yo'nalishini ajratish imkonini beradi. Birinchi yo'nalish falsafa fanlari doktori, professor Sadulla Otamuratovning ishlarida namoyon bo'ladi. Uning "Texnogen sivilizatsiya tizimida milliy manfaatlar" nomli maqolasida globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni fan, texnika va texnologiya yutuqlari bilan uyg'un holda ta'minlash masalasi ko'tarilib, texnogen sivilizatsiyaning millatlar taraqqiyotiga ko'rsatayotgan turli-tuman ta'sirlarini baholash imkoniyati asoslanadi [1]. Olimning "Globallashuv va millat" monografiyasida esa milliy o'zlik, madaniy meros va qadriyatlar tizimining global axborot bosimi ostidagi holati tizimli tahlil qilingan. Otamuratov yondashuvining mazkur maqola uchun metodologik qimmatini shundaki, u texnologiyani neytral vosita sifatida emas, balki qadriyatlar tizimini sinovdan o'tkazuvchi va uni qayta shakllantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida ko'radi. Bunday talqin kiberjinoyatchilikni faqat huquqbuzarlik emas, balki qadriyat inqirozining tashqi ko'rinishi sifatida tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, olimning tadqiqotlari asosan makrodarajaga - millat va sivilizatsiya munosabatlari qaratilgan bo'lib, qadriyatlarning konkret profilaktik mexanizmga aylanish yo'llari alohida predmet sifatida ochib berilmagan. Ikkinchi yo'nalish G.E.Turayevaning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Uning "Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish" nomli monografiyasida axborot texnologiyalarining talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri, internet tarmog'ining salbiy ta'sirlari va ularning oldini olish choralari tahlil qilingan [2]. Ushbu ish

mazkur maqola uchun ikki jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, u axborot texnologiyalarini faqat xavf manbai sifatida emas, balki ma'naviy tarbiyaning vositasi sifatida ham ko'radi, ya'ni bir tomonlama taqiqlovchi mantiqdan chiqadi. Ikkinchidan, u tarbiya subyekti sifatida bo'lajak o'qituvchini tanlaydi va shu orqali qadriyat uzatilishining ko'paytiruvchi samarasini ta'kidlaydi: pedagogning o'zida shakllangan raqamli axloqiy madaniyat keyinchalik yuzlab o'quvchiga uzatiladi. Turayeva tadqiqotining cheklovi shundaki, u asosan pedagogik jarayon doirasida qoladi; qadriyatlarning huquqni muhofaza qilish va profilaktika amaliyoti bilan bog'lanish nuqtalari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu ikki yo'nalishni uzviy bog'lash natijasida qadriyatga tayangan profilaktikaning uch qatlamli mantiqi ko'rinadi: birinchi qatlam - milliy va umuminsoniy qadriyatlarning falsafiy poydevori; ikkinchi qatlam - ushbu poydevorni ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs e'tiqodiga aylantiruvchi pedagogik texnologiya; uchinchi qatlam - shakllangan e'tiqodning real raqamli xulq-atvorda va huquqbuzarlikdan tiyilishda namoyon bo'lishi. Mazkur maqola aynan uchinchi qatlamni markazga oladi. Milliy adabiyotlarning yana bir muhim yo'nalishi ta'lim uzluksizligi bilan bog'liq: Sh.Ergashbayevning uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishga bag'ishlangan ishlarida qadriyat tarbiyasining bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz jarayon ekani asoslangan [3; 6]. Bu qarash profilaktika amaliyoti uchun bevosita ahamiyatga ega, zero kiberjinoyatchilikka qarshi immunitet epizodik ma'ruzalar bilan emas, balki takrorlanuvchi va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan ta'sir orqali shakllanadi. Milliy adabiyotlar tahlilining umumiy xulosasi shundan iboratki, o'zbek ilmiy an'anasida qadriyat masalasi asosan ijobiy tarbiyaviy kontekstda, ya'ni shaxsni shakllantirish nuqtai nazaridan o'rganilgan. Uning himoyaviy va profilaktik funksiyasi, ya'ni qadriyatning huquqbuzarlikka qarshi to'siq sifatidagi roli esa nisbatan kam tadqiq etilgan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, qadriyatni tarbiya predmeti bilan bir qatorda xavfsizlik resursi sifatida ham talqin qiladi. Shunday qilib, milliy ilmiy adabiyotlar qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi holatini hamda ularni ta'lim jarayonida shakllantirish

yo'llarini yetarli darajada yoritgan bo'lsa-da, qadriyatni kiberjinoyatchilik profilaktikasining tarkibiy elementi sifatida konseptuallashtiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola mavjud ilmiy merosni inkor etmaydi, balki uning falsafiy va pedagogik natijalarini profilaktik amaliyot tiliga o'girib, yagona aksiologik modelda tizimlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilik profilaktikasida ma'naviy qadriyatlar yordamchi tarbiyaviy vosita emas, balki profilaktik tizimning eng chuqur va eng barqaror qatlamini tashkil etuvchi ijtimoiy-falsafiy asos hisoblanadi. Raqamli makonda tashqi nazoratning qamrovi cheklangan, jazoning muqarrarliligi esa subyektiv ravishda past baholanadi; shu sababli huquqbuzarlikdan tiyilishning eng ishonchli kafolati shaxsning o'z ichki mezonlariga muvofiqlik ehtiyojidir. Qadriyat aynan shu ehtiyojni shakllantiradi va uni har qanday texnik yoki tashkiliy chegaradan mustaqil holda ishlaydigan regulyatorga aylantiradi. Tadqiqot asosida qadriyatlarning normativ, motivatsion va integrativ funksiyalari ajratildi hamda profilaktikaning repressiv, texnik-himoyaviy va aksiologik modellari raqobatdosh emas, balki bir-birini to'ldiruvchi qatlamlar ekani asoslandi. Qadriyat ta'sirining samaradorlik shartlari sifatida ishonarlilik, konkretlik, subyektlik va izchillik belgilandi. Taklif etilgan "milliy qadriyat - axloqiy e'tiqod - o'z-o'zini nazorat - jamoaviy nazorat - huquqiy javobgarlik" modeli profilaktika resurslarini qayta taqsimlash mantiqini beradi va asosiy e'tiborni eng arzon hamda eng uzoq muddatli himoya qatlamiga qaratishni taklif qiladi. Amaliy jihatdan mazkur yondashuv profilaktika ishining baholash mezonlarini o'zgartirishni taqozo etadi. O'tkazilgan tadbirlar soni va qamrov ko'rsatkichlari o'rniga yoshlarning huquqbuzarlikni axloqiy jihatdan qanday baholashi, xavfli taklifga duch kelganda qanday yo'l tutishi va tengdoshlarining xatti-harakatiga munosabati kabi sifat ko'rsatkichlari o'lchanishi lozim. Kelgusida ushbu nazariy model asosida turli hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, qadriyat yo'nalishlari bilan huquqbuzarlik xavfi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tarzda tekshirish maqsadga

muvofiq. Bunday tadqiqotlar qadriyatga tayangan profilaktikani ilmiy asoslangan, o'lchanadigan va boshqariladigan amaliyotga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otamuratov S. Texnogen sivilizatsiya tizimida milliy manfaatlar // O'zMU xabarlar. - 2024. - Vol. 1, № 1.2. - B. 183-187. - DOI: 10.69617/uzmu.v1i1.2.973.
2. Turayeva G.E. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish: monografiya. - Termiz: "TerDU NMM" nashriyoti, 2023. - 116 b.
3. Ergashbayev, S. (2025). Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish. Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary, 1(1), 10-13.
4. Yar M. The Novelty of Cybercrime: An Assessment in Light of Routine Activity Theory // European Journal of Criminology. - 2005. - Vol. 2, No. 4. - P. 407-427. - DOI: 10.1177/147737080556056.
5. Wall D.S. Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. - Cambridge: Polity Press, 2007. - 288 p.
6. Ergashbaev, S. (2025). O 'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
7. Gottfredson M.R., Hirschi T. A General Theory of Crime. - Stanford: Stanford University Press, 1990. - 297 p.
8. Suler J. The Online Disinhibition Effect // CyberPsychology & Behavior. - 2004. - Vol. 7, No. 3. - P. 321-326. - DOI: 10.1089/1094931041291295.
9. Mirzaolimjon og'li, M. M., & Shohbozbek, E. (2025). Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosati va universitetlarning yangi modellari. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 16(01), 325-328.

10. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-764. - 2022-yil 15-aprel // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2022.